

# **RANGTASVIR: DASTGOHLI**

## **yo‘nalishiga topshirgan abituriyentlar diqqatiga**

### **Hurmatli abituriyent!**

1. Siz 2021-2022 o‘quv yilida Andijon davlat universitetining 5150801 - Rangtasvir: dastgohli bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga hujjat topshirdingiz, endi kasbiy (ijodiy) imtihonda chizmatasvir va kompozitsiyadan amaliy ish bajarib, o‘z bilimlaringizni namoyon etasiz. Siz tomoningizdan 5 soat 20 minut (2 soat 40 minut chizmatasvirga, 2 soat 40 minut kompozitsiyaga) vaqt davomida bajariladigan amaliy ishlar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi. Kasbiy (ijodiy) imtihonlar dasturi va baholash mezonlari, qaysi guruhda ekanligingizni va qaysi kuni imtihonga kelishingiz haqidagi ma’lumotlarni universitetimizning <http://adu.uz> saytidan olishingiz mumkin.

2. Siz o‘zingiz bilan pandemiya holatini inobatga olgan holda, xavfsizligingizni ta’minlash maqsadida himoya vositasi – tibbiy niqob bilan kelishingiz so‘raladi. Abituriyentlar o‘zlari bilan shaxsini tasdiqlovchi pasporti va abituriyent ruxsatnomasi bilan kelishlari shart.

3. Kasbiy (ijodiy) imtihonda siz chizmaasvirdan o‘zingiz bilan: yumshoq, qattiq va o‘rtacha yumshoq (qattiq) qalamlar hamda yumshoq va qattiq o‘chirg‘ich (rezinka) olib kelasiz.

4. Kasbiy (ijodiy) imtihonda siz kompozitsiyadan o‘zingiz bilan: qalam, palitra, mo‘yqalamlar, (akvarel, guash, tempra, akrillardan birini) bo‘yog‘i olib kelasiz.

4. **HURMATLI OTA-ONALAR** imtihonlarga farzandingiz bilan kelmasligingizni iltimos qilamiz. Bu birinchi navbatda pandemiya sharoitida o‘zingizning va boshqalarning salomatligi uchun kerak. Shu munosabat bilan ota-onalarga maxsus joylar va boshqa sharoitlar bu yil yaratilmagan. Siz farzandlaringizni kasbiy (ijodiy) imtihon jarayonini to‘g‘ridan - to‘g‘ri <http://adu.uz> sayti orqali kuzatib borishingiz mumkin. Uyda qoling va karantin qoidalariga amal qiling.